

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Аминов Хамидулла Абдирахимович*
БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ 9-14
- Неъматов Рустам Абдуваид ўғли*
ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР 15-23
- Raxmatov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich*
FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL
VA MULOHAZALAR 23-32
- Мансуров Музаффаржон*
СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ
ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ 32-42
- Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich*
FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI
XUSUSIDA 43-48

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Kurpayanidi Konstantin Ivanovich*
COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI 49-55
- Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li*
КОМПАНИЯЛАР САМАРАЛИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ О'РНИ 56-65
- Абдуллаева Зульфия Иззатовна*
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ 66-74
- Алимова Муниса Юлчиевна*
ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР
ТАСНИФИ 75-80
- Абдиева Наргиза Шухратовна*
ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ 81-91
- Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна*
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ 92-97
- Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li*
BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH
MASALALARI 98-103
- Савинова Галина Анатольевна*
ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ
ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 104-108
- Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li*
QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH MASALALARI 109-114

Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё
 АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ
 ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ 115-125

Худаярова Хуршида Абдуназаровна
 ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ 126-132

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли
 РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

Аликулов Хусниддин Акбарович
 ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .142-151

Саидова Камола Усканбаевна
 РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ
 СИФАТИДА 152-156

Shirinov Anvar Qanoatovich
 MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIIY-
 FALSAFIY TAHLILI 157-162

Хасанов Бобуржон Хакимович
 ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ
 ОЛИШНИНГ ҲОЖИВИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ 163-167

Xodjayeva Fotima Nabixonovna
 AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF168-172

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna
 MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI 173-180

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi
 MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH
 TENDENSIYALARI 181-191

Turg'unova Fazilat Rustam qizi
 PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI 192-197

Saidov O'lmas Raxmatovich
 O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI 198-206

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna
 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA 207-213

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li
 MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ
 TA'SIRINING USULLARI 214-219

Murodova Nilufar Karomatovna
BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI 220-224

Ochilova Hilola Husan qizi
XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 225-229

Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK
TADQIQI 230-238

Yakubova Nilufar Egamberganovna
"MULLO NASRIDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA 239-245

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ 246-256

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Jumayev Rustam G'aniyevich
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 257-263

Бозорова Муслима
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА 264-270

Samadova Sarvinoz Samad qizi
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

Жўраев Воҳид Тожимаматович
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ 276-288

Бозорова Назокат
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ
СИФАТИДА 289-295

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li
МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI 296-301

Sharipova Sitara Xaydarovna
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN
FOYDALANISH 302-307

Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI
QO'LLASH 308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	350-356

13.00.00 – Педагогика фанлари

Sulaymanova Dildora Nazarovna
Samarqand davlat uiniversiteti,
Mustaqil izlanuvchi

LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada loyiha, loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasining mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, afzallik va kamchiliklari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Loyihaga asoslangan o'qitish vositasida bo'lajak o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, individual xususiyatlariga moslash, kognitiv imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlarini rivojlantirish, kreativlik, ijodiy yondashish, ichki erkinlik, o'z hayotining subyekti hissini mujassamlashtirish kabi kasbiy faoliyat uchun zarur sifatlarni shakllanishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: loyiha, loyihaga asoslangan o'qitish texnologisi, fikrlash, tafakkur, kreativ tafakkur, samaradorlik.

Сулайманова Дилдора Назаровна
Самаркандский государственный университет,
независимый исследователь

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРОЕКТНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье анализируется проект, сущность проектной технологии обучения, ее значение в образовательном процессе, ее преимущества и недостатки на основе научных источников. Профессиональная деятельность, такая как активизация учебной деятельности будущих учителей, адаптация ее к индивидуальным особенностям, развитие познавательных возможностей, способностей, интересов, творчества, творческого подхода, внутренней свободы, воплощение смысла предмета своей жизни посредством проектной деятельности. обучение, описано формирование необходимых качеств.

Ключевые слова: проект, технолог проектного обучения, мышление, мышление, креативное мышление, эффективность.

Sulaymanova Dildora Nazarovna
Samarkand State University,
Independent Researcher

ESSENCE AND CONTENT OF PROJECT EDUCATIONAL TECHNOLOGY

Abstract. This article analyzes the project, the essence of project-based learning technology, its importance in the educational process, its advantages and disadvantages based on scientific sources. Professional activities, such as enhancing the educational activities of future teachers, adapting it to individual characteristics, developing cognitive capabilities, abilities, interests, creativity, creativity, inner freedom, embodying the meaning of the subject of one's life through project activities. training, the formation of the necessary qualities is described.

Key words: project, project training technologist, thinking, thinking, creative thinking, efficiency.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la birin-ketin anglanishiga bog'liq [7, 107 b.]. Xususan, talabalarni kasbga tayyorlashda pedagogik umumiy (pedagogik faoliyat uchun umumiy), boqichli (pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan, ya'ni alohida olingan bosqich vazifalari), xususiy (mavjud va yuzaga keluvchi vaziyatli) vazifalarni turlariga ko'ra aniqlashtirish, ularni bajarishga tayyorlik holatida bo'la olishlariga e'tibor qaratish muhim. Chunki ushbu vazifalarni o'z vaqtida anglash hamda bajarish kasbiy faoliyatiga to'g'ri yondashuvni paydo qiladi. Ayniqsa, hozirgi biror bir fanning o'qitish metodikasini pedagogik sohasiz tasavvur qilib bo'lmaydigan bir davrda, uning maqsad hamda vazifalarini bajarish orqali o'qitishning, o'quv-bilish jarayoni faolligining sabablarini izohlashga ko'maklashishi ma'lum.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan zamon, o'sha davr fan olami nuqtai nazaridan o'rganilgan, talqin qilingan, ilmiy-nazariy jihatdan asoslanilgan. Vaqtlar o'tishi bilan mukammallashib borayotgan o'qitishning shakl, metod hamda vositalarini yangilash, o'zgartirish, ularni ta'lim oluvchining yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, ta'limning maxsus pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish muammolari yuzasidan alohida izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G.N.Ibragimova ta'lim nazariyasi va shaxs bilish faolligini rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni tahlil qilar ekan, bugungi kunda pedagogikada o'qitishning bir qator modellarini ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi, ya'ni:

1. Passiv o'qitish modeli – bu model doirasida ta'lim oluvchilar o'quv jarayoni obyekt sifatida namoyon bo'ladilar.

2. Faol o'qitish modeli – ushbu jarayonda talabalar o'qitish jarayoni obyekt sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Ular o'quv axborotlarini o'zlashtirish jarayonida mustaqil ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish ishlari bilan keng ko'lamda shug'ullanadilar.

3. Interfaol o'qitish modeli – mazkur o'qitish jarayoni ta'lim oluvchilarning muntazam faol munosabatlari va birgalikdagi harakatlari asosida amalga oshadi. Ushbu jarayonda talaba va professor-o'qituvchi o'quv jarayonining teng huquqli subyekti hisoblanadi [1, 16-17 b.].

Keyingi yillarda yuqoridagi kabi tadqiqotlar natijasida, ayniqsa, xorij metodikasida ta'lim ishtirokchilarining ongli faoliyatini, undagi kognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan qator o'qitish tamoyillari (uzluksizlik, individuallashtirish va tabaqalashtirish, modullilik, variativlik, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv, elektivlik, integrativlik), yondashuvlari (kompetensiyaviy, innovatsion, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ, kognitiv v.b.), o'qitish turlari (muammoga asoslangan o'qitish, shaxsga, tadqiqotchilikka, faollikka, loyihaga asoslangan o'qitish v.b.) amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda va ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichlarini kashf etmoqda.

Loyihaga asoslangan o'qitish – bu hayotiy, real muammolar asosida loyihalangan, faol o'rganish orqali chuqur bilimga ega bo'lishi kafolatlangan, o'zgaruvchan sinf-dars yondashuvini o'zida aks ettiradi [5]. Yasser Dar, Finley M. Patrik, E.Blayne, Devis V. Devid va boshqalarning e'tirof etishicha, PBL aniq dalillarni taqdim etuvchi yoki savol berish, muammolar qo'yish, ularning ssenariylarini taklif qilish orqali bilim olishning ravon yo'lini ko'rsatuvchi, qog'ozga,

yodlashga, o'qituvchi boshchiligidagi ko'rsatmalarga tayanishdan farqli ravishda faol o'rganish hamda izlanishga asoslangan o'qitish uslubi negiziga quriladi [8].

Jon Larmer, Jon Mergendoller va Suzi Bosslarning ta'kidlashicha, loyihaga asoslangan o'qitish kuchli o'qitish yondashuvi bo'lib, uni amalga oshirish davomida quyidagilarga ega bo'linadi:

- o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantiradi;
- o'quvchi va talabalarni oliy ta'limga, kasbga, kasbiy o'sish nuqtalarini belgilashga (individual kasbiy trayektoriyani rejalashtirishga), ijtimoiy faol fuqarolikka tayyorlaydi;
- o'quvchi va talabalardan chuqur bilim hamda fikrlash qobiliyatlarini namoyish etishni talab qiladigan topshiriqlarni yaxshi bajarishga (bizningcha, o'qituvchi uchun ijtimoiy buyurtmani bajarishga) yordam beradi;
- o'qituvchilarga yanada qonikarli tarzda dars berish imkonini taqdim qiladi;
- ta'lim tashkilotlarini nafaqat ota-onalar, boshqa jamoalar, balki butun dunyo bilan muloqot qilish va bog'lanishning yangi usullari bilan ta'minlaydi [2, 4 b.].

Tomas Markxem "PBL bilish va bajarishni birlashtiradi, talabalar o'rganilayotgan o'quv dasturidan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi, uning samarasi o'laroq, hayotiy muammolarni hal qilish va muhim natijalarga erishish uchun bilganlarini amalda qo'llaydi. PBL ta'limni o'quv dasturiga emas, talabaga qaratadi, hamkorlikdagi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun raqamli vositalardan foydalanadi va o'quvchilarni bugungi jahonda talab qilinayotgan global taraqqiyot, ijodkorlik, hissiy barqarorlik, chidamlilik, hamdardlik kabi nomoddiy boylik bilan mukofotlaydi. Albatta, bularni darsliklardan tashqarida o'rgatish mumkin emas, lekin tajriba orqali faollashtirish lozim", deya ta'riflaydi [4, 38-42 b.].

Buck Institute for Education instituti tomonidan tashkil qilingan talabalarni loyihaga asoslangan o'qitish (Project-based learning) asosida o'z kasbidagi real voqelikka tayyorlovchi hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan "<https://www.pblworks.org>" elektron platformasini o'rganish, kuzatish, olib borilgan ishlarni tahlil qilish natijasida o'qituvchi tomonidan o'ylab topilgan, uning aniq ko'rsatmalari va tashxisiga yo'naltirilgan "loyihani bajarish" hamda kasbiy hayotda real sodir bo'ladigan, erishilgan yoki yaratilgan mahsulot, taqdimot boshqalar amalda foydalanishi uchun zarur bo'lgan "loyihaga asoslangan o'qitish" tushunchalarining farqli jihatlari aks etgan qiyosiy jadvalni mualliflik munosabati bilan takomillashtirdik (1-jadval):

1-jadval

Loyihani bajarish va loyihaga asoslangan o'qitish mazmunining qiyosiy jadvali

Tayyor loyihani bajarish	Loyihaga asoslangan o'qitish
Aniq belgilangan qisqa muddat ichida bajariladi	Uzoq muddatli (bir hafta, oy yoki bir semestr davrida)
An'anaviy dasturni faollashtiruvchi, yo'riqnomaga qo'shimcha sifatida kiritilgan birlik	Integratsiyalashgan qo'llanma asosida yaratilgan loyiha (Loyiha bu – asosiy birlik)
O'qituvchi tomonidan qat'iy belgilangan yo'nalish asosida	Talabalarning taklifi hamda so'rovi asosida
Tashxis qilingan natija(mahsulot)ga qaratilgan	Natija(mahsulot)ga va jarayonda o'qitishga, o'rganishga asoslangan

Ko'p hollarda talab qilingan standartlar va ko'nikmalar bilan bog'liq emas	Akademik standartlarga va muvaffaqiyatni ta'minlovchi ko'nikmalarga moslashtirilgan
Ba'zan guruhda, ba'zan yakka tartibda auditoriyada yoki uyda ham bajarilishi mumkin	Talabalar bilan hamkorlikda bajariladi, shuningdek, o'qituvchining loyihani amalga oshirish jarayonida sinf ichidagi vaziyatdan kelib chiqib belgilagan ko'rsatmalarini o'zida qamrab oladi
Auditoriya yoki maktab dunyosi ichida qoladi	Haqiqiy dunyo uchun zarur bo'lgan mazmun (kontekst) va dastur yaratiladi
Loyihaning yakuniy natijasi auditoriyada yoki sinfda ko'rsatiladi	Loyihaning natijalari sinf hamda tegishli ommaviy auditoriya bilan baham ko'riladi.

Ushbu elektron platformada quyidagi ta'rifni ham uchratish mumkin: loyihaga asoslangan o'qitish – usul bo'lib, unda talabalar uzoq vaqt davomida haqiqiy, qiziqarli va murakkab savol, muammo topshiriq yoki muammoni o'rganish va ularga javob berish uchun ishlaydilar hamda shu orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Tadqiqotchi-trener Terri Xeykning o'z blogidagi (Teach Thought) qarashlariga ko'ra loyihaga asoslangan o'qitishning uch turi mavjud. Bulardan birinchisi, qiyinchilikka asoslangan o'qitish/muammoga asoslangan o'qitish (Challenge-Based Learning/Problem-Based Learning), ikkinchisi, muhitga yoki joyga asoslangan ta'lim (Place-Based Education), uchinchisi, faollikka asoslangan o'qitish (Activity-Based learning) sanaladi. Qiyinchilikka asoslangan o'qitish – bu o'quvchilarni o'z uylarida, maktablarida va jamoalarida sa'y-harakatlar orqali mavjud real muammolarga yechim topish uchun kundalik hayotlarida zarur bo'lgan texnologiyalardan foydalanishga undaydigan o'qitish va o'rganish uchun qiziqarli fanlararo yondashuv. Olimning fikricha, har qanday loyiha ma'lum bir qiyinchilikni hal qilishga, undan ma'lum natijadorlik orqali rivojlanishga qaratilsa, u haqiqiy loyihaga asoslangan o'qitish sifatida namoyon bo'ladi. Joyga yoki etnik kelib chiqishiga asoslangan ta'lim o'quvchilarni mahalliy meros, madaniyatlar, landshaftlar, imkoniyatlar va tajribalarga olib kiradi, ushbu o'qitish turidan til san'ati, matematika, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlarni o'rganish uchun asos sifatida foydalaniladi hamda shu orqali jamoa bo'lib mahalliy maktab yoki xizmat ko'rsatish loyihalarida ishtirok etish orqali o'rganishni ta'kidlaydi. Faollikka asoslangan o'qitish ko'proq amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan [6].

Maktabda turli fan doirasida o'quvchilar bilan ishlashda loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llab ko'rayotgan tadqiqotchi Laurens Xeyvudning ta'kidlashicha, o'quvchilar loyihada qo'yilgan ulkan muammoni bosqichma-bosqich hal qiladilar, jarayonda to'xtalishlar paydo bo'ladi, ya'ni har bir bosqichda kichik muvaffaqiyatsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Duch kelingan har bir muvaffaqiyatsizlik o'quvchilarning bilimsizlik sohalarini, nimani xato bajarganliklarini va uni to'g'rilash uchun qanday xatti-harakatni amalga oshirishlari kerakligini bilishga yordam beradi. Ya'ni loyihaga asoslangan o'qitish (PBL) maktabda asosiy bilimlarni egallash uchun qayta murojaat qilishni, o'rganishni vujudga keltiruvchi tabiiy jarayondir. Uning uqtirishicha, sinfni va o'quvchilarni birdaniga loyihaga asoslangan o'qitishga o'tkazib bo'lmaydi, buning uchun o'qituvchi eng kichik darajadan boshlashi va keyinchalik keng hajmdagi, uzoq muddatli loyihalarga olib borishi mumkin [3].

Tadqiqot davomida olib borilgan o'rganishlar va tahlillar, ishda ilgari surilayotgan gipoteza loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi tushunchasiga nisbatan mualliflik ta'rifini shakllantirish imkonini berdi:

Loyihaga asoslangan o'qitish – bo'lajak o'qituvchilar kreativ tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, didaktik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, yo'naltiruvchi savollar, doimiy ishlash, chuqur so'rov, haqiqiylik, taklif va tanlov, refleksivlik, tanqidiy fikrlash vositasida natijaga asoslangan texnologiyadir.

Pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan ixtiyoriy nazariya, yondashuv va texnologiyalarga xos bo'lgan afzalliklar yoki kamchiliklar loyihaga asoslangan o'qitish jarayonini ham chetlab o'tmaydi. Quyida sohaga doir tadqiqotlar hamda shaxsiy izlanishlarga tayangan holda, loyihaga asoslangan o'qitishning mohiyati, muhim elementlari, afzalliklari va kamchiliklarini ifodalovchi jadvalni keltiramiz (2-jadval).

2-jadval

Loyihaga asoslangan o'qitishning mohiyati, muhim elementlari, afzalliklari va kamchiliklari

LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH	
MOHIYATI	o'qituvchidan loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha mukammal bilim va tajribaning talab qilinishi; talabalardagi fan yuzasidan mavjud fundamental bilimlarga asoslanish, yangilarini o'zlashtirishga rag'batlantirish; haqiqiy muammolarni o'rganish uchun birgalikda ishlash va jarayonda o'quv dasturiga muvofiq ko'nikmalarni shakllantirish; mashaqqatli, ijodkorlikka asoslangan, erishish mumkin bo'lgan, qo'llab-quvvatlanadigan, uzoq muddatga mo'ljalangan; bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, talabalarining bilim, ko'nikmalari va bilimsizlik sohasiga yo'naltirishga qaratilgan; loyihaga asoslangan o'qitish amaliyoti vositasida talabalar, o'qituvchilar, maktablar, ta'lim tashkilotlariga o'z amaliyotini takomillashtirish, tizimlashtirish va baholashga ko'maklashish; ijtimoiy buyurtma va standartlarga asoslangan mazmuni, shuningdek, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, o'z-o'zini boshqarish, loyihalarni boshqarish va kollaborativlik kabi ko'nikmalarni qamrab olish; olib borilayotgan fan yoki o'quv dasturini o'zlashtirilganlik darajasidan kelib chiqib belgilash, sinflar kesimida soddadan murakkabga olib boruvchi jarayonni kuzatish; bilim, tushunish, anglash, jamoada ishlash, o'zgalarni eshitish, o'z fikrini asoslash, mas'uliyat, tirishqoqlik, muvaffaqiyatga eltuvchi ko'nikmalar zanjirini vujudga keltirish; mahsulotni yarata olish yoki taqdimot qilish zaruriyatini tushuntira olish
MUHM ELEMENTLARI	qiyin muammo yoki yo'naltiruvchi savol – hal qilinishi kerak bo'lgan mazmunli muammo yoki javob topish zarur bo'lgan savol tuzish;

	<p>doimiy, chuqurlashib boruvchi so'rov – savollar berish, resurslarni topish va ma'lumotlarni qo'llashning kengaytirilgan jarayoni bilan shug'ullanish;</p> <p>haqiqiylik – real dunyo konteksti, vazifalar, vositalar, standartlar, o'zaro ta'sir, shaxsiy tashvishlar, qiziqishlar va muammolarni o'z ichiga olish;</p> <p>talaba taklifi va tanlovi – loyiha bo'yicha ba'zi qarorlar qabul qilish, ularni tahlil qilish, ishlashini tekshirish, yaratish, fikrlarini ifodalash;</p> <p>refleksiya – o'rganish, so'rov va loyiha faoliyati samaradorligi, talabalar ishining sifati, yuzaga keladigan to'siqlar va ularni bartaraf etish strategiyalari haqida fikr yuritish;</p> <p>tanqid va qayta ko'rib chiqish – mavjud jarayonlarni va mahsulotlarini yaxshilash uchun o'zaro fikr-mulohazalarni bildirish, o'qituvchi bilan maslahatlashish va mukammallashtirish;</p> <p>ommaviy mahsulot (taqdimot) – o'z loyihasini boshqalar bilan bo'lishish, tushuntirish yoki barchaga taqdim etish orqali ochiqlash.</p>
<p>AFZALLIKLARI</p>	<p>shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytiradi hamda hayot davomida o'qishni qo'llab-quvvatlaydi;</p> <p>tafakkur, xotira, idrok, tasavvur, diqqat, nutqni ifodalovchi bilish jarayonlarini faollashtiradi;</p> <p>axborotlarni qabul qilish, tushunish, xotirada saqlash, bilimlarga aylantirish, qayta ishlash, uzatish kabi kognitiv imkoniyatlarni kengaytiradi;</p> <p>tanqidiy fikrlash (dizayn, baholash, tahlil qilish, hukm qilish, ustuvorlik va boshqalar), muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlashga o'rgatadi;</p> <p>ma'lumotni eslab qolishdan ko'ra ko'proq yuqori sifatli ish yaratishga olib boradi;</p> <p>tanqidiy fikrlashni targ'ib qiluvchi boshqa o'qitish usullaridan farq qiladi;</p> <p>yo'naltiruvchi savollar bilan boshqariladi;</p> <p>bilim, malakalar va boshqa turli xil muvaffaqiyatga eltuvchi XXI asr ko'nikmalarini birlashtiradi;</p> <p>moslashuvchan va haqiqiy, talabalarga motivatsiya beruvchi va qiziqarli;</p> <p>ishtirokchilarning barchasini bir xil maydonga chiqaradi, ongdagi kishanlar yechiladi, ijodiy erkinlik beradi, ilg'or va ilg'or bo'lmagan talabalarga o'z-o'zidan rag'batlantiruvchi loyiha ustida ishlash imkoniyatini yaratadi.</p> <p>kommunikativ ko'nikmalar, jamoada ishlash, uning ajralmas qismi ekanligini his qilish, qadriyatli munosabat, samarali o'zaro ta'sirga kirishishni rag'batlantiradi;</p> <p>o'quv materialini (bilimlarni) talabalarga qanday o'rganishlarini tanlash imkoniyatini beradi;</p>

	erishilgan natijalarni baholash aniq belgilangan mezonlarga asoslanadi.
KAMCHILIKLARI	belgilangan maqsadlarga erishishda vaqt ko'lamiga ko'ra uzoq muddat talab qilinadi; jarayonni loyihalashda murakkabliklarga duch kelinadi (ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga moslash, autentik vazifalar tuzish va b.); ba'zan mahsulotga asoslanib baholashning subyektivligi yuzaga keladi; barcha sinflar kesimida bir xilda qo'llab bo'lmasligi, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda; mo'ljallangan vaqtdan yutqazish, o'quvchi va talabalarda vaqtdan unumsiz foydalanish kuzatiladi.

Loyihaga asoslangan o'qitishga xos bo'lgan tajriba bo'lajak o'qituvchilarda bilimlardan foydalanishdagi kreativ tafakkur va uni rivojlantirishda tug'ilishi mumkin bo'lgan muammolardan qochishga ko'maklashadi, samaradorlik va natijadorlikka ega bo'lgan ijobiy pedagogik hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda:

➤ loyihaga asoslangan o'qitishda loyihani bajarishga kirishish, aniq muammoni belgilash, yo'naltirishni tushunishga doir butun jarayon (o'quv maqsadi, rejasi, mazmuni, shakllari, vositalari, dars jadvali, konsultativ faoliyat, monitoring, baholash) qamrab olinishini taqozo etishi uni "texnologiya" sarhadlaridan chiqish hamda "ta'lim amaliyoti turi" nuqtai nazaridan qarash mumkinligini bildiradi;

➤ o'qituvchining roli o'zgaradi, u yordamchi, maslahatchi, muvofiqlashtiruvchi, qayta aloqani o'rnatuvchi sifatida o'quv jarayonini (darsda va undan tashqarida) qo'llab-quvvatlaydi, tayyor bilimlar bermaydi, ta'lim oluvchilarni turli savollar berish, faollashtirish, doimiy kuzatish, tahlil qilish, qayta yo'naltirish orqali loyihaning takomillashuviga olib boradi;

➤ o'quv materiali kasbiy (ta'limiy, hayotiy) faoliyatga xos bo'lgan haqiqiy vaziyatlarni ifodalashi, muammoni o'rganish, tushunish, tahlillash, anglashga qaratilganligi bo'lajak o'qituvchilarda uni to'liq o'zlashtirish, o'ziga ishonchini mustahkamlash, mas'uliyatni zimmasiga olish, murakkab (ixtiyoriy) vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

➤ jamoada ishlashning birlamchiligi ta'lim oluvchida o'z fikrini bayon etish, dalillash, o'zgalarni eshitish, konstruktiv munosabat bildirish, jamoaviy xulosalarni hurmat qilish asosida ijtimoiy moslashuvchanlik hamda kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – 168 b. (16-17-b.)

2. Larmer, John. Setting the standard for project based learning: a proven approach to rigorous classroom instruction // John Larmer, John Mergendoller, Suzie Boss. pages cm Includes bibliographical references and index. ISBN 978-1-4166-2033-4.
3. Lawrence Haywood. <https://ahaslides.com/uz/blog/project-based-learning-examples-ideas>
4. Markham, T. (2011). Project-Based Learning. Teacher Librarian, 39(2), 38-42.
5. [Project-Based Learning, Edutopia, March 14, 2016.](#)
6. Terry Heick. <https://www.teachthought.com/project-based-learning>
7. Tolipov O'. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.(107-b.)
8. Yasseri, Dar; Finley, Patrick M.; Mayfield, Blayne E.; Davis, David W.; Thompson, Penny; Vogler, Jane S. (2018-06-01). "The hard work of soft skills: augmenting the project-based learning experience with interdisciplinary teamwork". Instructional Science. 46 (3): 457–488.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).